



**TABIIY RESURSLARDAN FOYDALANISHDA MANFAATLAR
TO‘QNASHUVI: HUQUQIY TAHLIL
EKOLOGIK HUQUQDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINI HAL
ETISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI**

Ilmiy rahbar: Odilov Jamshid Bobirmirzo o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universitet „Huquqshunoslik“ kafedrasi o‘qituvchisi

[Mobil: +998916006070. E-mail : odilovjamshid1234@gmail.com]

Abdumo‘minov Muzaffar Joxongir o‘g‘li

Toshkent davlat agrar universiteti

„Yurisprudensiya“ yo‘nalishi II kurs talabasi

[Mobil: +998998430064. E-mail: muzaffarabdumominov045@gmail.com]

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan manfaatlar to‘qnashuvi masalalari huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Unda davlat, xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda fuqarolarning tabiiy resurslardan foydalanishdagi manfaatlari, ularning o‘zaro uyg‘unligi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ziddiyatlar yoritilgan. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga doir konstitutsiyaviy, fuqarolik-huquqiy va ekologik normalar ko‘rib chiqilgan. Maqolada manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishning huquqiy mexanizmlari, davlat nazorati va tartibga solish tizimining ahamiyati tahlil qilingan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganilib, ularni O‘zbekiston qonunchilik amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlari ham yoritilgan. Tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash va ijtimoiy manfaatlar muvozanatini saqlash maqolaning asosiy g‘oyasini tashkil etadi.*

Kalit so‘zlar: *tabiiy resurslar, manfaatlar to‘qnashuvi, huquqiy tahlil, ekologik huquq, atrof-muhitni muhofaza qilish, resurslardan oqilona foydalanish,*



davlat nazorati, ekologik barqarorlik, ekologik xavfsizlik, huquqiy tartibga solish, tabiiy resurslarni boshqarish, ijtimoiy manfaatlar.

Аннотация: *В данной статье проведён правовой анализ конфликта интересов, возникающего в процессе использования природных ресурсов в Республике Узбекистан. Рассматриваются интересы государства, хозяйствующих субъектов и граждан при использовании природных ресурсов, а также возможные противоречия между ними. Проанализированы конституционные, гражданско-правовые и экологические нормы, регулирующие рациональное использование природных ресурсов, охрану окружающей среды и обеспечение экологической безопасности. В статье также рассматриваются правовые механизмы предотвращения и урегулирования конфликта интересов, роль государственного контроля и системы правового регулирования. Кроме того, изучен передовой опыт зарубежных стран и возможности его применения в законодательной практике Узбекистана. Основной идеей статьи является обеспечение эффективного использования природных ресурсов, экологической устойчивости и баланса общественных интересов.*

Ключевые слова: *природные ресурсы, конфликт интересов, правовой анализ, экологическое право, охрана окружающей среды, рациональное использование ресурсов, государственный контроль, экологическая устойчивость, экологическая безопасность, правовое регулирование, управление природными ресурсами, общественные интересы.*

Abstract: *This article provides a legal analysis of conflicts of interest arising in the process of using natural resources in the Republic of Uzbekistan. It examines the interests of the state, economic entities, and citizens in the use of natural resources, as well as potential conflicts between them. The study analyzes constitutional, civil, and environmental legal norms related to the rational use of natural resources, environmental protection, and ensuring environmental safety. The article also discusses legal mechanisms for preventing and resolving conflicts of interest, as well as the role of state control and regulatory systems. In addition, the*



advanced experience of foreign countries is analyzed and the possibilities of applying it in the legislative practice of Uzbekistan are considered. Ensuring efficient use of natural resources, environmental sustainability, and a balance of social interests constitutes the main idea of the article.

Keywords: *natural resources, conflict of interest, legal analysis, environmental law, environmental protection, rational use of resources, state control, environmental sustainability, environmental safety, legal regulation, natural resource management, public interests.*

Kirish. Bugungi globallashuv va tezkor iqtisodiy o'zgarishlar davrida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni asrash hamda kelajak avlodlar uchun saqlab qolish masalasi butun dunyo hamjamiyatining dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish masalasi hozirgi davrning asosiy global muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu resurslar har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatimiz qonunchiligiga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar xalq mulki hisoblanishi hamda ular davlat tomonidan boshqarilishi belgilab qo'yilgan.[1] Ushbu norma tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishning muhim huquqiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, Yer kodeksi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida"gi qonunlari tabiiy resurslardan foydalanish hamda ularni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham yer va suv resurslari milliy boylik sifatida e'tirof etilib, ularni muhofaza qilish hamda oqilona foydalanish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz o'zining geografik joylashuvi va iqlim sharoitiga ko'ra yer hamda suv zaxiralarining nisbatan cheklanganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ushbu resurslardan samarali foydalanish, ularni asrash va huquqiy jihatdan muhofaza qilish masalalari dolzarb



ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda aholining yashash sharoitini yaxshilash, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish hamda oziq-ovqat resurslari bilan ta‘minlash kabi muhim vazifalar ham bevosita yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishga bog‘liqdir.[2]

Qonunchilikka muvofiq, fuqarolar va xo‘jalik yurituvchi subyektlar tabiiy resurslardan faqat qonun doirasida hamda ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilgan holda foydalanishlari lozim. Shu bilan birga, amaliyotda suv resurslarining kamayib borishi, ifloslanishi, resurslarning samarasiz sarflanishi, texnologik yo‘qotishlar kabi muammolar ham mavjud bo‘lib, bu esa mazkur sohada zamonaviy boshqaruv usullarini qo‘llashni hamda huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni talab etadi.

Shu nuqtai nazardan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni huquqiy jihatdan muhofaza qilish, shuningdek davlat, jamiyat va xo‘jalik subyektlari manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlash masalalari ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.[3] Mazkur maqolada tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, ularning huquqiy asoslari hamda ushbu sohani takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda tabiiy resurslardan foydalanishda manfaatlar to‘qnashuvini huquqiy jihatdan tahlil qilish maqsad qilingan. Tadqiqot obyekti – tabiiy resurslardan foydalanish jarayoni, predmeti – Germaniya, AQSh, Yaponiya va Shvetsiyada mulk huquqi va ekologik xavfsizlikni muvofiqlashtirishning huquqiy mexanizmlari.

Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, solishtirma huquqiy tahlil, doktrin tahlil; ekologik monitoring va jamoatchilik ishtiroki haqidagi ma‘lumotlar tahlili kabi metodlardan foydalanilgan. Shuningdek, ma‘lumot manbalari – qonunchilik, rasmiy hukumat saytlaridagi resurslar, ilmiy maqolalar va darsliklar batafsil o‘rganib chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Tabiiy resurslardan foydalanishda manfaatlar to‘qnashuvi muammosi, avvalo, resurslardan oqilona va maqsadli foydalanishning huquqiy kafolati bilan chambarchas bog‘liqdir. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, xususan, 50-moddada har bir fuqaro atrof - muhitga e‘tiborli va



g'amxo'r bo'lishga majburligi belgilangan bo'lib, bu norma tabiat resurslaridan foydalanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar zimmasiga ekologik barqarorlikni ta'minlash, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish va ularni asrab-avaylash kabi muhim majburiyatlarni yuklaydi.[4] Shu nuqtai nazardan, tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulkchiligini saqlash va himoya qilish jarayoni, ularni foydalanuvchilarning mulk huquqini ta'minlash bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu huquqiy himoya korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning tegishli majburiyatlarni ado etishi, davlat organlarining nazorat funksiyalarini to'laqonli amalga oshirishi, shuningdek, ekologik qonunbuzarliklarga nisbatan huquqiy javobgarlik choralari qo'llashi orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasiga muvofiq, har bir mulkdor o'z mulkidan o'z ixtiyori bilan foydalanish, uni tasarruf etish va egallash huquqiga ega bo'lsa-da, bu huquq ekologik xavfsizlik, boshqa shaxslarning huquqlari va ijtimoiy manfaatlariga ziyon yetkazmaslik sharti bilan cheklangan.[5] Shu asosda, tabiat boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha foydalanuvchilarga bir qator ijtimoiy va huquqiy vazifalar yuklanadi, jumladan, atrofmuhitni asrashga doir ekologik va agrar qonunlarni keng tushuntirish, ilm-fan va texnologiya yutuqlarini qo'llagan holda ekologik himoya tizimini takomillashtirish, sohada malakali mutaxassislarni tayyorlash, ekologik-huquqiy bilim va madaniyatni rivojlantirish hamda tabiiy obyektlardan foydalanish ustidan samarali nazoratni tashkil etish. Tabiiy resurslar ustidan mulk huquqini himoya qilish, eng avvalo, resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni bartaraf etish va huquqbuzarliklarga huquqiy baho berish orqali amalga oshiriladi. Sud tartibida huquqni muhofaza qilish, ayniqsa, yer, suv, yer osti boyliklari, atmosferadagi havo, o'rmon fondi, flora va fauna obyektlari ustidan mulk va egalik huquqlarining buzilishi, shartnoma va bitimlarning qonuniyligi bilan bog'liq nizolar, moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazilgan holatlar va ekologik huquq buzilishlarini ko'rib chiqadi. Bundan tashqari, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqi ma'muriy tartibda ham muhofaza qilinadi, bunday hollarda vakolatli ma'muriy organlar tomonidan huquqbuzar shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi va agar mansabdor shaxslar tomonidan chiqarilgan hujjatlar



qonunga zid bo'lsa, ular yuqori turuvchi organlar tomonidan bekor qilinishi mumkin. Huquqni muhofaza qilishda tanlanadigan usul aniq huquq sohasining normativ talablari asosida belgilanadi, masalan, bitimlarning bekor qilinishi yoki tovon undirilishi fuqarolik-huquqiy tartibda, ekologik jinoyatlar esa jinoyat-huquqiy doirada ko'rib chiqiladi. O'zbekiston sharoitida tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulkchiligini huquqiy muhofaza qilish intizomiy-huquqiy, ma'muriy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy va jinoyat-huquqiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi. Har bir usulning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, ular huquqbuzarlikning xarakteri, yetkazilgan zararining hajmi, uning oqibatlari, qonuniy talablarga zidlik darajasi va da'vo arizasida keltirilgan asoslarga qarab qo'llaniladi. Xorijiy davlatlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, tabiiy resurslar ustidan mulk huquqini himoya qilish birgina sud yoki ma'muriy vositalar bilan emas, balki ijtimoiy, madaniy, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlar uyg'unligida amalga oshiriladi. Masalan, Germaniyada mulk huquqi konstitutsiyaviy jihatdan fuqarolarning manfaatlari va ekologik xavfsizlik bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, ekologik jinoyatlar avvalo ma'muriy tartibda ko'rib chiqiladi va keyinchalik fuqarolik sudlari orqali zarar qoplatish mexanizmlari ishga tushiriladi.[6] AQShda tabiiy resurslar ustidan mulk huquqi xususiy sektor foydasiga keng qo'llaniladi, lekin federal va shtat darajasidagi ekologik agentliklar har bir bitim, foydalanish shartnomasi va egalik holatlarini qat'iy nazorat qiladi, atrof-muhitga zarar yetkazgan har qanday subyekt katta jarimalar bilan jazolanadi va jinoyat kodeksida alohida bandlar mavjud.[7] Yaponiyada esa mulk huquqi ekologik etika bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, yer, suv yoki o'rmon ustidan egalik faqat ekologik xavfsizlikka mos tarzda amalga oshiriladi, har qanday ekologik zarar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy javobgarlik bilan ham baholanadi va nizolar ko'pincha sudgacha bo'lgan muqobil vositalar orqali hal qilinadi.[8] Shvetsiyada davlat mulkchiligiga mansub tabiiy resurslar ustidan fuqarolar keng jamoatchilik nazorati vositalari bilan ishtirok etib, maxsus onlayn platformalar, ekologik monitoring tizimlari va fuqaroviy hisobotlar orqali noqonuniy faoliyat haqida to'g'ridan-to'g'ri ekologik idoralarga murojaat qilish imkoniyatiga ega.[9] Shu bilan birga, O'zbekiston milliy qonunchiligi va davlat amaliyoti resurslardan foydalanish,



monitoring va nazoratni tartibga soluvchi mexanizmlarni o'z ichiga oladi va xorijiy davlatlarning ilg'or amaliyotlari ekologik barqarorlik, jamiyat manfaatlarini himoya qilish hamda resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda o'rnak sifatida qo'llanilishi mumkin. Umuman olganda, tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqini huquqiy himoya qilish har bir davlatning siyosiy, iqtisodiy va ekologik boshqaruv tizimlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning samarali amalga oshirilishi resurslardan foydalanishdagi manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish, adolat, shaffoflik va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tabiiy resurslardan foydalanishda yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi, avvalo, resurslardan oqilona foydalanish va ularni himoya qilishning huquqiy kafolatlari bilan bevosita bog'liqdir. O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslarga nisbatan davlat mulkchiligini saqlash va himoya qilish, shu bilan birga foydalanuvchilarning mulk huquqini ta'minlashga qaratilgan tizimli mexanizmlar amalda joriy etilgan. Fuqarolar va xo'jalik yurituvchi subyektlar ekologik xavfsizlikni ta'minlab, resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish majburiyatini oladi, shu orqali resurslardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan nizolar kamayadi. Yer va suv resurslarining monitoringi, ekologik ekspertiza, raqamli texnologiyalar asosidagi hisoblash tizimlari va suv tejovchi irrigatsiya usullari singari amaliy vositalar manfaatlar to'qnashuvini oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan.[10]

Xorijiy tajribalar O'zbekiston sharoitida qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish uchun muhim o'rnak sifatida ko'rib chiqiladi. Germaniya va Yaponiyada resurslardan foydalanish huquqi ekologik xavfsizlik va ijtimoiy manfaatlar bilan uyg'unlashtirilgan, AQShda xususiy mulk huquqi kuchli nazorat mexanizmlari bilan qo'llaniladi, Shvetsiyada esa jamoatchilik nazorati va onlayn monitoring vositalari keng tatbiq etilgan. Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, tabiiy resurslardan foydalanishda mulk huquqini himoya qilish nafaqat sud yoki ma'muriy choralar orqali, balki ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va madaniy mexanizmlarning uyg'un ishlashi orqali samarali bo'ladi.



Natijada, O'zbekistonda tabiiy resurslardan foydalanishdagi manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish uchun qonunchilik, davlat nazorati, ekologik ekspertiza va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan birgalikda xalqaro tajribalarni amaliyotga joriy etish zarurati mavjud. Shuningdek, resurslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va aholi turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu yo'nalishda kompleks huquqiy va boshqaruv yondashuvlarini joriy etish muhimligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Tabiiy resurslardan foydalanishda yuzaga keladigan manfaatlar to'qnashuvi davlat va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda resurslarni saqlash orqali hal qilinadi. O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslar ustidan mulk huquqini himoya qilish va ulardan oqilona foydalanishning huquqiy mexanizmlari joriy etilgan bo'lib, ular monitoring, ekologik ekspertiza, raqamli texnologiyalar va jamoatchilik nazorati orqali samarali ishlashga qaratilgan. Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari shuni ko'rsatadiki, mulk huquqi, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtirgan kompleks yondashuv resurslardan foydalanishdagi nizolarni kamaytiradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, tabiiy resurslardan foydalanishda quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin: birinchidan, milliy qonunchilikni yanada takomillashtirib, ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanish talablarini mustahkamlash; ikkinchidan, raqamli monitoring va jamoatchilik nazoratini kengaytirish orqali qonunbuzarliklarni kamaytirish; uchinchidan, xalqaro tajribalarni o'rganib, ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish; to'rtinchidan, ekologik-huquqiy bilim va madaniyatni oshirish, sohada malakali mutaxassislar tayyorlash; va nihoyat, yer va suv resurslarini barqaror boshqarish uchun ilg'or texnologiyalarni joriy etish. Ushbu chora-tadbirlar resurslardan oqilona foydalanish, manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish va mamlakatda ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 120 b. ISBN 978-9943-9725-1-3
2. Ekologiya Huquqi: Darslik / J.T. Xolmo'minov, N.B. Shoimov, O.A. Kamalov, O.J. Xolmuminov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014. -235 B.
3. Abdullaeva N.K. Atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. – Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2023.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 120 b. ISBN 978-9943-9725-1-3
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – 120 b. ISBN 978-9943-9725-1-3
6. Ikramov R.A., Kandov B.M. The Role of Ecological Values in the Private Pyerspective in the Process of Globalization // European journal of life safety and stability (EJLSS). 2022. – pp. 68-73.
7. Percival, R. V., Schroeder, C. H., Miller, A. S., & Leape, J. P. (2019). Environmental regulation: Law, science, and policy (9th ed.). Wolters Kluwer.
8. Ministry of the Environment, Japan. (1993). Basic Environment Law. <https://www.env.go.jp/en/laws/policy/basic/index.html>
9. European Commission. (2022). Environmental implementation review 2022: Sweden.
10. Baxronova D., Abdushahidov N., Jo'Rayeva M. O 'ZBEKISTONDA SUV SIYOSATI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA TAKLIFLAR //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 8. – C. 242-252.